



САМГМИ



МИН ВУЗ  
РЕСПУБЛИКИ  
УЗБЕКИСТАН



МИНЗДРАВ  
РЕСПУБЛИКИ  
УЗБЕКИСТАН



КАФЕДРА  
ПЕДАГОГИКИ И  
ПСИХОЛОГИИ



**СБОРНИК  
тезисов  
Международной  
конференции**

**Педагогические и лингво-  
психологические  
особенности развития,  
формирования и  
становления личности врача**

**САМАРКАНД  
5 МАЯ 2021 ГОД**

**Министерство Здравоохранения Республики Узбекистан**  
**Министерство высшего и среднего специального образования Республики**  
**Узбекистан**

**Самаркандский государственный медицинский институт** Кафедра  
**педагогики и психологии**



**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ  
РАЗВИТИЯ, ФОРМИРОВАНИЯ И СТАНОВЛЕНИЯ ЛИЧНОСТИ ВРАЧА**

**МАТЕРИАЛЫ**

международной научной конференции

(Самарканд, 5 мая 2021 г.) Под ред. РИЗАЕВА Ж.А.

Самарканд - 2021

**« Педагогические и психолингвистические особенности развития,  
формирования и становления личности врача»**

tortadi. Narsa agar aytilganga muvofiq kelguday bo'lsa, uni rost deb qabul qilinadi. Ibn Sino ba'zi vaqtlarda so'zlarni o'zgartirib, ramziy ma'noda ham ishlatilsa, insonlarga yoqishi haqida fikr bildirgan.

Shayx Najmiddin Kubro "Fi-al-adab" ("Odob qoidalari") risolasida: "Ko'rdimki, eng noyob ne'mat rostgo'ylik va qahramonlik, eng og'ir og'riq esa yomon va munofiq do'stlar ekan..... To'g'ri so'zlikdan ko'ra go'zalroq ziynatni ko'rmadim" – rostgo'ylik, to'g'riso'zlikni ulug'lagan.

Amir Temur odob-ahloq, iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiyada o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun Amir Temur tomonidan yaratilgan odob-ahloqqa oid dasturlar, pand-nasihatlarini ko'zdan kechirish kifoya. Amir Temur davlatni va qo'shinni boshqarishda o'n bir sifatga amal qilgan. Ulardan oltinchisi: "Barcha so'zlarimda doim haqiqatgo'ylikka amal qildim. Bu dunyo va u dunyo haqidagi eshitganlarimdagi haqiqatni yolg'ondan ajrata bildim". Bu fikrlari bilan bobokalonimiz rahbar har ishda adolat, haqiqat bilan yondashish zarurligi hamda idrok qilinayotgan voqelikdagi rostni yolg'ondan ajratish muhimligini ta'kidlagan.

Shunday qilib, buyuk allomalar tomonidan yolg'on va yolg'onchilik masalalari bo'yicha ilgari surilgan fikrlarini tahlil qilishga intildik. Ular tomonidan ilgari surilgan g'oyalar tahlili shundan darak berib turibdiki, yolg'onchilik munofqlikning belgisi, salbiy shaxs xislati ekanligi, inson har qanday vaziyatda ham rost va faqat rost gapirishi uqtirilganligining guvohi bo'ldik. Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalashda SHarq allomalarining ilmiy nazariy qarashlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYACHILARNING  
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHLARINING MAZMUNI**

**Norqo'ziyeva M.A.**

*Jizzax davlat pedagogika instituti, Jizzax, O'zbekiston*

Barkamol avlod tarbiyasi mamlakatimizda demokratik islohatlarni chuqurlashtirish, fuqoralik jamiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ayni paytda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun dasturiy amal hisoblanadi. Qarorda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi muhim vazifalardan hisoblanadi. Qabul qilingan me'yoriy hujjatlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, tabiat bilan tanishtirish orqali axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish imkoniyatini yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, o'quv tizimini yangidan isloh qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqish va ularni amaliyotga keng jalb qilish, rivojlangan davlatlar o'quv sistemasidagi yangiliklar va yutuqlarni o'rganish xamda ularni mamlakatimizda tadbiq etish hozirgi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy isloxlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikatsion texnologiyalarni inobatga olgan xolda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash- Davlat talablarining maqsadi xisoblanadi.

Maktabgacha talim yoshidagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim –tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash, ta'lim–tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish Davlat talablarining eng muxim vazifalaridandir. Bu kabi vazifalardan kelib chiqqan xolda ta'lim tarbiya jarayoniga eng zamonaviy va bola yoshiga mos



**« Педагогические и психолингвистические особенности развития,  
формирования и становления личности врача»**

vositalarni tanlash pedagog xodimlardan bilim va tajriba talab qilinadi. Bolaning ta'lim olishi va rivojlanishida esa kattalarning ro'li muxim ahamiyatga ega. Chunki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi - o'rgatuvchi, bolalar esa qabul qiluvchi xisoblanadi Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkiloti tajribali pedagoglaridan axborot kommunikatsion texnologiyalardan mashg'ulotlar jarayonida unumli foydalana olish ,u haqida bilimga ega bo'lish talab qilinadi. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish bevosita zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga samarali joriy etish darajasi bilan bog'liqligini inkor etib bo'lmaydi. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayoniga o'ziga xos bo'lgan innovatsion yondashuvdir. U pedagogikada ijtimoiy-muxandislik taffakurining ifodasi, o'qitish, tarbiyalash jarayonini ma'lum darajada standartlash demakdir. Jumladan, o'qitishning og'zaki bayon qilish usullaridan voz kechib, kompyuterlar, ta'limning texnik vositalari yordamida o'qitish, o'quvchi bilish faoliyatining boshqaruvchisi, tashkilotchisi, maslahatchisi, yakuniy natijaga erishishga yo'llovchisi-o'qituvchi, ustoz rahbarligida talabalarning ko'proq mustaqil ishlarini tashkil etish va eng muhimi o'qituvchining deyarli bir-xil yakuniy natijaga erishish imkoniyatini beradi. Xulosa qilib aytganda , zamonaviy ta'lim tizimining vazifasi bolaga shunchaki bilim berish emas, ijodiy tafakkurini loyihalashtirishdan iboratdir.Bolalarni ta'lim jarayoniga jalb etish qiziqtirish juda muxim. Bu jarayonda esa tarbiyachi bolalarning qiziqishidan kelib chiqqan xolda mashg'ulotga to'g'ri yondasha olishi talab qilinadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun tayyorlangan multimediyali vositalar ovozli, musiqali, harakatlanuvchi, rangli,multifikatsiyali va jozibali, eng muhimi bola yoshiga mos bo'lishi zarur.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN AN'ANAVIY VA  
NOAN'ANAVIY DARSLARDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH USULLARI**  
**Norqulov L.M.**

*Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston*

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish dastur hajmidagi bilimlarni bilish maqsadiga yo'naltirilgan va ma'lum xossalarga asoslangan amallar sistemasidan iborat. Boshlang'ich sinflarda matematikadan an'anaviy darsning asosiy maqsadi har bir dars mavzusining asosiy mazmunini, tushuncha va xossalarini o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga berish va ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirishdan iborat.

Har bir matematika darsi oldin o'zlashtirilgan bilimlar bilan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar o'rtasida uzviy aloqa o'rnatilishidan boshlanadi. Yangi mavzuni yoritish, turli misol va masalalar yordamida mustahkamlash, darsga yakun yasash, umumlashtirish, o'quvchilar bilimni baholash va uyga vazifa topshirish bilan yakunlanadi.

Ko'pchilik pedagoglarning fikricha, an'anaviy dars berish usulini passiv dars berish usuli deb ham baholashadi. Bu umumiy holda tog'ri emas bizning fikrimizcha an'anaviy darsda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga, darsni innavatsion texnologiyalar va korgazmali qurollar asosida o'tishga va darsni talab darajasida rejalashtirishga bog'liq.

An'anaviy darsning samaradorligini oshirish uchun, darsda o'quvchilarning faolligini oshirish uchun yangi mavzuni mayda-mayda bo'laklarga bo'lib o'tish maqsadga muvofiq. Shuningdek, o'quvchilarning o'tilgan materialni qanday o'zlashtirib borayotganligini nazorat qilib boorish va turli xil misol va masalalarni yechishlari kerak bo'ladi.

An'anaviy darsning bosqichlari quyidagilardan iborat.Darsning tashkiliy bosqichi. Bunda o'quvchilar bilan salomlashish, davomatni tekshirish, mavzuga doir zarur ko'rgazmali qurollarni va jihozlarni darsga hozirlash kerak bo'ladi.

O'tilgan materialni takrorlash va yangi mavzuga tayyorgarlik bosqichi. Bunda yangi mavzu bilan bog'liq bo'lgan o'tgan dars materiallarini takrorlash, o'quvchilarning o'tilgan mavzuga oid bilim darajalarini aniqlash, o'quvchilar bilimni baholash va yangi materialni o'quvchilarning o'zlashtirishlariga tayyorlash ishlari amalga oshirilishi kerak.

An'anaviy darslarning maqsadi qisqa va ravon til bilan yoritilishi lozim. asosiy tushuncha va

**« Педагогические и психолингвистические особенности развития,  
формирования и становления личности врача»**

GIGIYENIK GIMNASTIKA VA BOLALARNI SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH	
Muratova Sh.M., Mustafoyeva Z.M. DARSLARDA INTERFAOL PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARNI QO'LLASH	91
Murodullaev X.I. JINSIY BEZLAR MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI	92
Nazarov X.E. O'QUVCHILARDA MASALALAR YECHISH MAHORATLARINI O'STIRISH YO'LLARI	93
Nazarova Z. FAN O'QITUVCHILARINING INNOVATSION TA'LIM MUHITI TALABLARI ASOSIDA PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	93
Normo'minov B.U. YOSHLARDA OILAVIY MUNOSABAT HISLARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O'RNI	94
Normo'minov B.U., Ro'ziyeva G. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI TARBIYALANUVCHILARINI MEHNATGA MUHABBAT RUHIDA TARBIYALASHNING – PEDAGOGIK MEXANIZMLARI	95
Nishanov S.Y. YOLG'ONCHILIK MUAMMOSINING PSIXOLOGIK NAZARIY TAXLILI	96
Norqo'ziyeva M.A. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYACHILARNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHLARINING MAZMUNI	97
Norqulov L.M. BOSHLNG'ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN AN'ANAVIY VA NOAN'ANAVIY DARSLARDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH USULLARI	98
Normo'minov B.U. TARIXIY MATERIALLAR ASOSIDA TALABALARDA KASBIY BILIM VA KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH	99
Nusratova U.N. O'QUVCHILARNING KASBLARGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI SHAKLANTIRISHNING PSIXOLOGIK SHARTLARI	100
Olimova L.B., Raxmatova F.G. TIBBIYOT XODIMINI TAYYORLASHDA MILLIY SHARQONA TARBIYANING O'RNI	101
Olimova S., Boltaboyeva D. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'YIN YETAKCHI FAOLIYAT SIFATIDA	102
Pardaev Z.Sh. TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI	103
Pardayev Z.Sh. O'QITUVCHI NOTIQLIGI – DARS SAMARADORLIGINI TA'MINLOVCHI OMIL SIFATIDA	104
Pulatova G.M., Yuldasheva G.J. BILINGVIZM PSIXOLOGIK TARAQQIYOTNING MEZONI SIFATIDA	105
Qoraboyev S.	106

**PEDAGOGICAL AND LINGUISTIC  
PSYCHOLOGICAL FEATURES OF  
DEVELOPMENT, FORMATION  
AND THE FORMATION OF THE  
PERSONALITY OF A DOCTOR**

